




Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi



2020- yil yanvar-dekabr



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi

Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

- 2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **56,2** % ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **13,7** birlikni tashkil qildi.
- 2020- yilning yanvar-dekabrida **4440** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **121,8** foizga kup.



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo
37,4 %

Sanoat
18,0 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
22,0 %

Qurilish
6,6 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 1659 ta, sanoatda 801 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 976 ta, qurilishda 294 ta, yashash va ovqatlanishda 184 ta, tashish va saqlashda 93 ta tashkil etilgan.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'Ichov birligi	2019- y.	2020- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	14677	18288	3611
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	3645	4440	795
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	54,7	56,2	1,5
Sanoat	%	22,2	23,9	1,7
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,5	96,3	-2,2
Investitsiya	%	32,1	28,2	-3,9
Qurilish	%	89,1	92,3	3,2
Chakana savdo	%	87,6	90,0	2,4
Xizmatlar	%	53,6	51,4	-2,2
Yuk tashish	%	86,7	86,5	-0,2
Yuk aylanmasi	%	88,8	89,8	1,0
Yo'lovchi tashish	%	93,8	94,0	0,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,1	96,0	-1,1
Eksport	%	20,8	21,7	0,9
Import	%	63,5	71,1	7,6



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da

YaHM
56,2%

Savdo
90,0%

Sanoat
23,9%

Qurilish
92,3%

Investitsiya
28,2%

Export
21,7%

Xizmatlar
51,4%


Import
71,1%

Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	farqi (+;-)
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3645	4440	795
Nukus sh.	1058	934	-124
tumanlar:			
Amudaryo	251	305	54
Beruniy	251	346	95
Bo'zatov	-	148	148
Qorao'zak	109	124	15
Kegeyli	125	151	26
Qo'ng'irot	230	322	92
Qonliko'l	93	139	46
Mo'ynoq	150	163	13
Nukus	159	214	55
Taxiatosh	130	178	48
Taxtako'pir	62	147	85
To'rtko'l	371	415	44
Xo'jayli	190	239	49
Chimboy	146	182	36
Shumanay	105	152	47
Ellikqal'a	215	281	66



2020- yil yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, % da



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Nukus shahri – 21,0 %, To'rtko'l – 9,4 %, Beruniy – 7,8 %, Qo'ngirot – 7,3 %, Amudaryo – 6,9 %, Ellikqal'a – 6,4 %, Xo'jayli – 5,4 %, Nukus tumani - 4,9 % hissalariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- y. yanvar-dekabr	2020- y. yanvar-dekabr	farq. (+;-)
Jami	3645	4440	795
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	358	976	618
Sanoat	741	801	60
Qurilish	536	294	-242
Savdo	1297	1659	362
Tashish va saqlash	126	93	-33
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	247	184	-63
Axborot va aloqa	68	77	9
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	54	65	11
Boshqa faoliyat turlari	218	291	73

Ma'lumot uchun: 2020– yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi (+;-)
Nukus sh.	1058	934	-124
To'rtko'l tumani	371	415	44
Beruniy tumani	251	346	95
Qo'ngirot tumani	230	322	92
Amudaryo tumani	251	305	54
Ellikqal'a tumani	215	281	66
Xo'jayli tumani	190	239	49
Nukus tumani	159	214	55
Chimboy tumani	146	182	36
Taxiatosh tumani	130	178	48

2020- yilning yanvar – dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Respublika bo'yicha Nukus sh. – 934 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






2020- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan , **13,7** birlikni tashkil etdi.



Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra*




2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga shahar va tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus tumani 24,4 birlik, Qonliko'l 18,7 birlik, Bo'zatov 18,4 birlik, Mo'ynoq 18,3 birlik, Qorao'zak 18,2 birlik, Nukus shahri 16,6 birlik, To'rtko'l 16,1 birlikni tashkil etgan. Taxiatosh esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 8,9 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020–yilning yanvar-dekabrida shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*





2020- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus tumanida 24,4 birlik, Qonliko'l tumanida 18,7 birlik, Bo'zatov tumanida 18,4 birlik, Mo'ynoq tumanida 18,3 birlik, Qorao'zak tumanida 18,2 birlik, Nukus shahrida 16,6 birlik, To'rko'l tumanida 16,1 birlik, Taxtako'pir tumanida esa 15,0 birlikni tashkil etdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori
ko'rsatkich

- Nukus tumani
- 24,4 birlik.

O'rtacha
ko'rsatkich

- Ellikqal'a tumani
- 12,7 birlik.

Eng past
ko'rsatkich

- Taxiatosh tumani
- 8,9 birlik.



Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-dekabr holatiga ko'ra, % da

2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **56,2** % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-dekabrida **54,7** %).

54,3%

2018- y.

54,7%


2019- y.

56,2%

2020- y.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning shahar va tumanlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Qoraqalpog'iston Respublikasi	23,9	92,3	51,4	28,2
Nukus sh. tumanlar:	10,2	97,6	36,5	40,2
Amudaryo	49,7	96,9	74,1	51,0
Beruniy	83,2	99,6	70,1	54,7
Bo'zatov	17,9	99,4	65,8	37,4
Qorao'zak	40,6	98,5	80,6	65,8
Kegeyli	44,2	84,6	77,1	39,0
Qo'ng'iroq	29,8	64,5	28,8	13,9
Qonliko'l	14,6	96,8	74,7	51,6
Mo'ynoq	99,2	95,5	79,7	6,7
Nukus	29,8	97,0	76,2	57,9
Taxiatosh	13,1	69,1	50,1	19,4
Taxtako'pir	27,1	99,6	82,9	40,2
To'rtko'l	73,2	98,7	67,8	27,4
Xo'jayli	45,3	93,9	79,9	59,6
Chimboy	46,1	99,0	70,7	62,6
Shumanay	100,0	99,6	75,5	58,4
Ellikqal'a	99,8	91,4	72,3	40,2

Shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Shumanay (100,0 %),
Ellikqal'a (99,8 %),
Mo'ynoq (99,2 %),
Beruniy (83,2 %),
To'rtko'l (73,2 %) va
Amudaryo (49,7 %)
tumanlarda.


Qurilishda-

Beruniy (99,6 %),
Taxtako'pir (99,6 %),
Shumanay (99,6 %),
Bo'zatov (99,4 %),
Chimboy (99,0 %), va
To'rtko'l (98,7 %)
tumanlarda.


Xizmatlarda-

Taxtako'pir (82,9 %),
Qorao'zak (80,6 %),
Xo'jayli (79,9 %),
Mo'ynoq (79,7 %),
Kegeyli (77,1 %)
Nukus rayon (76,2 %)
va Shumanay (75,5 %)
tumanlarda.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 78,8 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 21,7 % ini tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bo'zatov, Nukus tumanı, Taxtako'pir, Qorao'zak, Beruniy, Ellikqal'a, Mo'ynoq, va Shumanay – 100,0 % ni, eng past ko'rsatkich Kegeyli – 0,1 % ni tashkil etdi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarimahsulot(ishlar va xizmatlar) importining hajmi 125,3 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 71,1 % ini tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Taxiatsosh, Bo'zatov, Taxtako'pir, Xo'jayli, Amudaryo, To'rtko'l, Beruniy, Shumanay – 100,0 %, Eng past ko'rsatkich Kegeyli tumanida – 34,5 % ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subektlari tomonidan 3382,1 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2020- yilning yanvar-dekabrida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (799,9 mlrd. so'm), Ellikqal'a (328,5 mlrd. so'm), Beruniy (300,0 mlrd. so'm), To'rtko'l (295,3 mlrd. so'm) va Taxiatsosh (225,1 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Bo'zatov tumanida (21,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumi hajmida kichik biznesning ulushi 23,9 foizni tashkil etdi.



2020- yil yanvar-dekabr holatiga shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Shumanay (100,0 %), Ellikqal'a (99,8 %), Mo'ynoq (99,2 %), Beruniy (83,2 %), To'rtko'l (73,2 %), Amudaryo (49,7 %), Chimboy (46,1%), Xo'jayli (45,3 %), Kegeyli (44,2 %) va Qorao'zak (40,6 %) tumanlari tashkil etdi. Nukus shahrida (10,2 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 5947,3 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 90,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,1 foizni tashkil qildi.



2020- yilning yanvar- dekabrida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Nukus shahri (1634,4 mlrd. so'm), Xo'jayli (654,9 mlrd. so'm), To'rtko'l (576,2 mlrd. so'm), Beruniy (536,2 mlrd. so'm), Qo'ngirot (431,6 mlrd. so'm) va Amudaryo (421,1 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 3495,1 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 92,3 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan 105,5 foizni tashkil qildi.




2020- yilning yanvar- dekabrida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Nukus shahri (1185,5 mlrd. so'm), To'rtko'l (340,2 mlrd. so'm), Qo'ngirot (238,8 mlrd. so'm), Beruniy (219,0 mlrd. so'm), Xo'jayli (208,0 mlrd. so'm), Nukus tumani(187,1 mlrd.so'm) hamda Mo'ynoq (175,4 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 3347,4 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 51,4% ini tashkil qildi 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 101,7 % tashkil qildi.




2020- yilning yanvar- dekabrida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirdorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirdorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Nukus shahri (997,3 mlrd. so'm), To'rtko'l (306,5 mlrd. so'm), Amudaryo (263,4 mlrd. so'm), Qo'ngirot (255,8 mlrd. so'm), Beruniy (246,5 mlrd. so'm), Xo'jayli (241,4 mlrd. so'm) va Ellikqal'a (205,7 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 86,5 foizni tashkil etdi. 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,3 foizni tashkil qildi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 89,8 foizni tashkil etgan bo'lib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 foizni tashkil qildi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 94,0 foizni tashkil etib, bu esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,7 foizni tashkil qildi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 96,0 foizni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,6 foizga tashkil qildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **698** ta respondentlar ishtirok etdi.



2020- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 9,2 % (64 ta), sanoatda – 13,8 % (96 ta), qurilishda – 13,9 % (97 ta) , savdoda – 34,5 % (241 ta), xizmatlar sohasida – 28,6% (200 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha.



2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan, kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4,7 punktga, sanoat sohasida 5,8 punktga, savdo sohasida 2,6 punktga ko'payishi kuzatildi.


Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4,0 punktga, sanoat sohasida 1,1 punktga, qurilishda -5,3 punktga, savdo sohasida 6,3 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushining kamayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilishda 7,0 punktga, savdo sohasida 3,7 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



Oxirgi hisobot yilda sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Savdo	Xizmatlar
6,9	43,1	2,3	3,4	9,0
50,0	39,1	71,3	59,0	56,0
43,8	42,7	66,0	52,7	49,5
45,2	51,0	26,4	37,6	40,9
54,7	24,7	40,2	40,2	35,0



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 3,8 punktga, qurilish korxonalarida 3,0 punktga, savdo sohasida 3,2 punktga ko'payishi kuzatildi.


Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, sanoat korxonalarida 14,7 punktga, xizmatlar sohasida 20,7 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qurilishda 5,2 punktga, savdoda 1,0 punktga oshdi.




**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatining
yaqin uch oy uchun baholanishi,% da**

	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Savdo	Xizmatlar
--	---	---------------	-----------------	--------------	------------------






2020- yilning IV choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **62** ta respondentlar qatnashgan. Shundan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 14 ta (22,6 %), sanoat korxonalari – 11 ta (ishtirok etgan respondentlar umumiyl sonining 17,7 % i), qurilish – 4 ta (6,5 %), savdo – 23 ta (37,1 %) va xizmatlarda – 10 ta (16,1 %) subyekt ishtirok etdi.




2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar sanoat sohasida 18,1 punktga, qurilishda 22,2 punktga, savdo sohasida 26,3 punktga pasayish kuzatildi.


Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushida ham deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 14,3 punktga, sanoat sohasida 18,1 punktga, qurilishda 75,0 punktga, savdo sohasida 39,1 punktga va xizmatlar sohasida 28,9 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



2019-2020- yillarning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020- yilning IV choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyati yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 28,6 punktga, sanoatda 36,3 punktga, xizmatlar sohasi korxonalarida esa 16,7 ko'payishi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 35,7 punktga, sanoatda 45,4 punktga, savdoda 10,4 punktga, qurilishda 66,7 punktga, xizmatlar sohasi korxonalarida esa 36,7 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 7,1 punktga, qurilishda 75,0 punktga, savdoda 30,4 punktga, xizmatlar sohasida 20,0 punktga oshdi.



2019-2020- yilning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

